

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI UNESCO BOSH KONFERENSIYASI NAVBATDAGI SESSIIYASIDA ISHTIROK ETADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30-oktabr kuni Samarqand shahrida bo‘lib o‘tadigan Ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UNESCO) Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining ochilish marosimida ishtirok etadi.

Bosh konferensiyaning tarixiy sessiyasi qirg‘ yil ichida birinchi marta UNESCOning Parijdagi qarorgohidan tashqarida o‘tkazilmoqda. Bunday keng ko‘lamli xalqaro forumning Samarqandda o‘tkazilishi O‘zbekistonning tashkilot g‘oyalari va qadriyatlariga sodiqligi, shuningdek, tinchlik, o‘zaro anglashuv va barqaror taraqqiyot yo‘lidagi global muloqotni rivojlantirishga faol hissa qo‘shishga qat‘iy intilishining yorqin tasdiq‘i bo‘ladi.

Ushbu muhim sessiya doirasida ta‘lim, fan, madaniyat, ekologiya, texnologiya va kommunikatsiya sohalaridagi asosiy masalalarni muhokama qilishga bag‘ishlangan 150 dan ortiq turli shakldagi tadbirlar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Bunday nufuzli xalqaro tadbir dunyoning eng qadimiy va ulug‘vor shaharlaridan birida tashkil etilgani o‘ziga xos ramziy ma‘noga ega. Bu jahon hamjamiyatining O‘zbekistonga bo‘lgan yuksak ishonchi, uning madaniyatlararo muloqot g‘oyalarini ilgari surish, tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash va gumanitar hamkorlikni rivojlantirish borasidagi nufuzi hamda

faolligi tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

Tadbirda 200 dan ziyod davlat va xalqaro tashkilotlardan yuqori darajadagi delegatsiyalar, jumladan, Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich, Slovakiya Respublikasi Prezidenti Peter Pellegrini, UNESCO Bosh direktori Odri Azule va boshqa faxriy mehmonlar ishtirok etadi.

UNESCO Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashtirilgan muassasi bo‘lib, 1945-yilda ta‘lim, fan, madaniyat va kommunikatsiyalar sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali tinchlik hamda xavfsizlikni mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi 1993-yilda UNESCOning to‘la huquqli a‘zosi bo‘ldi. 1996-yilda Toshkentda tashkilotning vakolatxonasi ochilgani mamlakatimizning ushbu nufuzli xalqaro tuzilma bilan hamkorligi va ko‘p qirrali sherikligini mustahkamlashda muhim bosqich bo‘ldi.

O‘ZA

IJTIMOIIY SUG‘URTA SOHASINI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 29-oktabr kuni ijtimoiy sug‘urta tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

“Kambag‘allikdan farovonlik san” dasturi doirasida fuqarolarning bandligini ta‘minlash va ularni tadbirkorlikka jalb etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida kambag‘allik darajasi 2021-yildagi 17 foizdan 6,8 foizga, kam ta‘minlangan oila sifatida nafaqa oluvchilar soni esa 14 foizdan 6,1 foizga kamaydi.

Shu bilan birga, bugungi kunda aholini og‘ir hayotiy vaziyatlarda daromadsiz qolishi va kambag‘allikka tushishining oldini olish masalalari davlatimizning doimiy e‘tiborida.

Taqdimotda bu boradagi dolzarb masalalar ko‘rsatib o‘tiladi.

Jumladan, xususiy sektorda band bo‘lgan aholining barchasiga ham homiladorlik, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik va ishdan bo‘shash bo‘yicha nafaqalar to‘lab berilmayapti. Bu holatni to‘lovlar ko‘p hollarda ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxining oshishiga olib kelayotgani va raqobatbardoshlikka ta‘sir ko‘rsatayotgani, ish beruvchilar nafaqalarni to‘lashga ortiqcha yuklanma sifatida qarayotgani sababli tadbirkorlar uchun ushbu tizim jozibador emasligi bilan izohlash mumkin.

Qolaversa, Xalqaro mehnat tashkilotining “Ijtimoiy ta‘minotning minimal normalari to‘g‘risida”gi va “Onalikni muhofaza qilish

to‘g‘risida”gi konvensiyalariga muvofiq, tug‘ish va kasallik bo‘yicha nafaqalar ijtimoiy sug‘urta mexanizmlari orqali to‘lanishi belgilangan.

Taqdimotda aholini ijtimoiy nafaqalar bilan qamrovini oshirish hamda milliy ijtimoiy sug‘urta tizimini xalqaro hujjatlariga uyg‘unlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan takliflar ko‘rildi.

Rasmiy band bo‘lgan barcha shaxslarga nafaqalar bosqichma-bosqich Ijtimoiy himoya jang‘armasi tomonidan to‘lanishi yo‘lga qo‘yiladi. 2026-yildan boshlab ayollarga homiladorlik nafaqasi, 2026-yil ikkinchi yarmidan esa vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalari to‘lab boriladi.

Yangi tizimning asosiy maqsadi ayollar va ishchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bilan birga rasmiy mehnat munosabatlarni rag‘batlantirish ekani ta‘kidlandi.

Prezidentimiz takliflarni ma‘qullab, ijtimoiy sug‘urta sohasini raqamlashtirish, tizim shaffof ishlashi, nafaqalar proaktiv ravishda tayinlanib, to‘lab borilishini ta‘minlash yuzasidan aniq topshiriqlar berdi.

O‘ZA

FINLYANDIYA PREZIDENTI O‘ZBEKISTONGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Finlyandiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Stubb 29-oktabr kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.

Oliy martabali mehmonni Toshkent xalqaro aeroportida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari Jamshid Xo‘jayev va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Tashrif dasturiga muvofiq, Toshkent shahrida oliy darajadagi muzokaralar bo‘lib o‘tadi, ularda O‘zbekiston bilan Finlyandiya o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni, eng avvalo, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalarida yanada kengaytirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqiladi.

O‘zaro savdo hajmini oshirish, qishloq xo‘jaligi, ekologiya, kimyo, energetika,

raqamlashtirish, tog‘-kon sanoati va boshqa innovatsion tarmoqlarda kooperatsiyani yo‘lga qo‘yishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Mehnat migratsiyasi, madaniyat, ta‘lim tizimiga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish sohalarida hamkorlik masalalari ko‘rib chiqiladi.

Xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar, shu jumladan, ko‘p tomonlama tuzilmalarda o‘zaro qo‘llab-quvvatlash yuzasidan ham fikr almashiladi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON – FINLYANDIYA: IKKI TOMONLAMA ALOQALARNING MUHIM DAVRI

Finlyandiya Prezidenti Aleksandr Stubb 29-oktabr kuni rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonga keldi.

O‘zbekiston va Finlyandiya o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar o‘ttiz yildan ortiq tarixga ega bo‘lib, mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan ko‘p o‘tmay yo‘lga qo‘yilgan.

Xususan, Finlyandiya O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini 1991-yil 30-dekabrda tan oldi va diplomatik munosabatlar 1992-yil 26-fevralda o‘rnatildi.

Biroq uzoq vaqt davomida ikki mamlakat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar hech qanday sur‘atsiz rivojlandi. Bugun esa biz yangi bosqichning boshlanishi haqida ishonch bilan gapirishimiz mumkin. Bu — davr ruhi va ikki mamlakat manfaatlariga mos keladigan mazmunli, pragmatik va istiqbolli hamkorlik bosqichi.

Davomi 2-betda



Samarqand JAHON MADANIYATI VA ILM-FANI CHORRAHASIDA

O‘zbekistonning qadimiy va go‘zal Samarqand shahri UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi o‘tkazilishi tufayli yana bir bor jahon madaniyati va ilm-fanining muhim markazi sifatidagi mavqeiini tasdiqlaydi.

Bunday nufuzli anjumanning aynan Samarqandda o‘tkazilishi bejiz emas. Zero, u asrlar davomida Sharq va G‘arbni bog‘lab turgan, turli madaniyatlar, dinlar va ilm-fanlarning o‘zaro ta‘siriga sahna bo‘lib xizmat qilgan shahardir. Jahon miqyosidagi tadbir o‘tkaziladigan joy sifatida tanlanishi mamlakatimizning madaniyat, ilm-fan, ta‘lim, kommunikatsiya va axborot

sohalaridagi yutuqlari hamda boy tarixiy va madaniy merosining yaqqol e‘tirofi hamdir. Binobarin, UNESCO jahon xalqlarini bilim, madaniyat va fan orqali birlashtirishni maqsad qilgan nufuzli xalqaro tashkilot. Uning asosiy vazifasi asosan madaniy merosni asrab-avaylash, ta‘lim tizimini rivojlantirish va jamiyatda tinchlik hamda hamjihatlikni mustahkamlashdan iborat.

UNESCOning asosiy maqsadi ta‘lim, fan, madaniyat, kommunikatsiyalar, turizm sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish orqali tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga ko‘maklashishdir. Mazkur xalqaro tashkilot yalpi savdosizlikka qarshi kurashish, maorif tizimini rivojlantirish, milliy madaniyatlarni o‘rganish, atrof-muhit va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish kabi keng qamrovli masalalarni hal etishga ham katta hissa qo‘shib kelmog‘da.

Bosh konferensiya arafasida Samarqand shahrida UNESCO XIV Yoshlar forumi hamda UNESCO ishlari bo‘yicha milliy komissiyalarning XII mintaqalararo

anjumanlari o‘tkazilishi ham uning ahamiyatini yanada oshirdi.

Markaziy Osiyoning eng qadimiy va ko‘zga ko‘ringan shaharlaridan biri sifatida Samarqand ajoyib me‘moriy yodgorliklari va boy tarixiy merosi bilan mashhur. U Sharq va G‘arbni bog‘lab turgan Buyuk ipak yo‘lidagi muhim chorraha vazifasini o‘tagan. Bugun shahar Registon maydoni, Ulug‘bek rasadxonasi va Shohi Zinda majmuasi kabi diqqatga sazovor joylari bilan tanilgan. Ushbu yodgorliklar nafaqat qadimgi dunyoning me‘moriy ulug‘vorligi va ilmiy yutuqlarini aks ettiradi, balki shaharning madaniy almashtiruv markazi sifatidagi bardavom roli va jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan ulkan hissasidan dalolat beradi.

Davomi 3-betda

IPAK YO‘LI – SIVILIZATSIYALAR O‘RTASIDAGI MULOQOTNING YORQIN NAMUNASI

UNESCO Bosh konferensiyasining Samarqand shahrida joriy yil 30-oktabr — 13-noyabr kunlari bo‘lib o‘tadigan 43-sessiyasi oldidan qator tadbirlar, uchrashuvlar tashkil etilmoqda. 29-oktabr kuni ko‘hna va hamisha navqiron kentda UNESCO Milliy komissiyasining 12-yig‘ilishi o‘z ishini boshladi.

Milliy komissiyaning asosiy vazifasi O‘zbekistonning UNESCO va ICESCO faoliyatidagi xalqaro nufuzi va o‘rnini mustahkamlash, vazirlik va idoralarning madaniyat, ta‘lim, ilm-



fan, kommunikatsiyalar va axborot ishlab chiqarishga doir faoliyatini muvofiqlashtirish sanaladi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON UNESCO BOSH KONFERENSIYASINING 43-SESSIIYASIGA MEZBONLIK QILIB, GLOBAL E‘TIBOR MARKAZIGA AYLANDI

SAMARQANDDA BO‘LIB O‘TADIGAN XALQARO FORUMNING XORIIJIY ISHTIROKCHILARI ANJUMAN HAQIDA

40 yildan so‘ng birinchi marta Parijdan tashqarida o‘tkaziladigan UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi Samarqandda ochildmoqda. Ushbu keng ko‘lamli xalqaro tadbirning O‘zbekistonda o‘tkazilishi chuqur ramziy ma‘noga ega.

Ishtirokchilar tarix va zamonaviylik uyg‘unlashgan Samarqand muhitidan ilhom olayotganini ta‘kidlamog‘da. O‘rta asrlarda bu shahar madaniyatlar va sivilizatsiyalar chorrahasi, ilm-fan, san‘at va ta‘lim markazi, butun dunyoga ta‘sir ko‘rsatgan g‘oyalar



manbai bo‘lgan. Va bugungi kunda bu qadim kentda sivilizatsiyalar va avlodlar o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlashga qaratilgan yangi tashabbuslar tug‘ilmoqda.

Davomi 2-betda

YANGI RIVOJLANISH BOSQICHI – KATTA MUVAFFAQIYATLARGA QADAM

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shu yil 17-oktabr kuni kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Ushbu tarixiy uchrashuv mamlakatimiz, xalqimiz tarixida yana bir yangi sahifa ochdi. Chunki uchrashuvda davlatimiz rahbari “Kuchli kasaba uyushmalari — kuchli jamiyat asosi” degan tashabbus asosida bir qator vazifalarni belgilab berdi. Ularning har biri hayotbaxsh, inson qadriini ulug‘lashga qaratilgani bilan ajralib turadi. Bilamizki, so‘nggi yillardagi bunday yangilanishlar xalqimiz hayotini tubdan o‘zgartirib, xalqaro maydonda keng e‘tirof etilmoqda.

Darhaqiqat, bugun jahonda yangi O‘zbekistonning nufuzi ortib borayotganini barchamiz ko‘rib, bilib turibmiz. Xususan, davlatimiz rahbarining shu yil sentyabr oyida AQSHga tashrifi chog‘ida dunyo ahlining yurtimiz haqidagi tasavvurini butunlay o‘zgartirib yuboradigan voqealar yuz berdi. Nyu-York osmonida Prezidentimiz sharafiga “Prezident Shavkat Mirziyoyev, AQSHga xush kelibsiz!” yozuvi hamda davlatimiz bayrog‘i aks ettirilishi qalbimizni g‘ururga to‘ldirdi.

Mamlakatimiz yetakchisi BMT Bosh Assambleyasi 80-yubiley sessiyasida so‘zga chiqib, yangi O‘zbekistondagi ortga qaytmas islohotlar haqida gapirdi. Shuningdek, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik eng dolzarb masalalarni hal etish, tinchlik va barqaror taraqqiyotni ta‘minlashga qaratilgan qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Davomi 5-betda



O‘ZBEKISTON – SERBIYA: DO‘STLIK, O‘ZARO ISHONCH HAMDA HAMKORLIK YANADA MUSTAHKAMLANADI

Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni kengaytirish, jumladan, pozitsiyalarni o‘zaro qo‘llab-quvvatlash zarurligi ta’kidlandi.

Uchrashuv yakunida tomonlar O‘zbekiston va Serbiya o‘rtasidagi do‘stlik, o‘zaro ishonch hamda hamkorlikni yanada mustahkamlashga kelishib oldi.

Shundan so‘ng Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchich rafiqasi bilan Toshkent shahrida barpo etilgan, Islom me‘morchiligining haqiqiy durdonasi va O‘zbekistonning Uchinchi uyg‘onish davri timsoli sanalgan Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurdi.

Oliy martabali mehmonga Bosh vazir o‘rinbosari O.Ramatov hamda markaz rahbariyati, olimlar hamrohlik qilib, dunyoda o‘xshashi bo‘lmagan ushbu ulkan me‘moriy majmua hamda uning jahon ilm-fani va islom olamidagi o‘rni haqida batafsil ma‘lumot berildi.

Prezident Aleksandr Vuchich markazning muzevi, ko‘rgazma zallari, arxiv, axborot texnologiyalari markazi, qo‘lyozmalar bo‘limi, xattotlik va islom merosini saqlashga qaratilgan infratuzilmalar bilan tanishdi.

Shuningdek, markaz hududida tashkil etilgan Islom akademiyasi, axborot-resurs markazi, konferensiya zali va boshqa inshootlar o‘ziga xos me‘moriy uslubda bunyod etilgani bilan mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

Zamonaviy shaharsozlik sharoitida bunday me‘moriy yodgorliklarning ahamiyati, Markazning maqsad va vazifalari haqida ham atroflicha ma‘lumot berildi.

Qadimiy me‘moriy an‘analar va milliy bezaklar uyg‘unligida qurilgan, to‘rt tomonida balandligi 34 metrli peshtoqlar, o‘rtada esa 65 metrli milliy uslubdagi gumbaz barpo etilgan bu inshootning mahobati mehmonlarni o‘ziga rom etdi.

Prezident Aleksandr Vuchich markazdagi ekspozitsiyalar bilan tanishib, xalqimizning boy tarixiy va ma‘naviy

merosini keng namoyish etishga qaratilgan bunday ishlar yuksak samara berishiga ishonch bildirdi.

Shuningdek, Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich O‘zbekiston Raqamli texnologiyalar vazirligiga tashrif buyurdi. Oliy martabali mehmonni vazir Sherzod Shermatov boshchiligidagi mas‘ullar samimiy kutib oldi.

Uchrashuv avvalida Raqamli texnologiyalar vazirligi faoliyati, mamlakatimizda raqamlashtirish jarayonining borishi hamda “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar haqida videolavha namoyish etildi.

Taqdimotda elektron hukumat tizimini takomillashtirish, AT-ta’limni rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta’minlash va raqamli infratuzilmani kengaytirish borasida erishilgan natijalar aks etgan.

Prezident Aleksandr Vuchich yurtimizda keng ko‘lamli raqamli transformatsiya jarayoni jadal kechayotganiga to‘xtalib, bu boradagi davlat siyosati va tashabbuslar izchilligini e‘tirof etdi. Shuningdek, Serbiya va O‘zbekiston o‘rtasida ayni yo‘nalishda tajriba almashish, qo‘shma texnoparklar tashkil etish va yosh mutaxassislar almashinuvini yo‘lga qo‘yish muhimligini ta’kidlandi.

Mehmonlar IT-Park faoliyati, raqamli xizmatlar markazlari, elektron hukumat tizimining ishlash mexanizmi hamda yosh dasturchilar uchun yaratilgan sharoitlar bilan ham tanishdi.

Mazkur uchrashuv O‘zbekiston va Serbiya o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalaridagi aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar yo‘nalishidagi o‘zaro muloqot esa ikki davlat o‘rtasida o‘rnatilgan zamonaviy hamkorlik ko‘prigini yanada mustahkamlashi shubhasiz.

Toshkent shahridagi “Texnopark” majmuasida O‘zbekiston va Serbiya o‘rtasidagi hamkorlik ko‘lamini yanada kengaytirishga qaratilgan biznes-forum bo‘lib o‘tdi. Anjuman

doirasida ikki davlat sanoat ko‘rgazmasi ham tashkil etildi.

Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchichning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi kun tartibidan o‘rin olgan forumda har ikki davlatdan hukumat vakillari, tegishli idoralar mas‘ullari va 100 dan ortiq tadbirkor ishtirok etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari Jamshid Xo‘jayev mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar samarasi, erishilayotgan aniq natijalar xususida ma‘lumot berdi.

O‘z navbatida oliy martabali mehmon ikki tomonlama hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratilayotganini ta’kidladi.

2025-yil yanvar-sentabr oylarida O‘zbekiston va Serbiya o‘rtasidagi savdo hajmi 2,5 foiz oshdi. Respublikamiz eksportining asosiy yo‘nalishlari paxta, to‘qimachilik xomashyosi, kimyo mahsulotlari, don ekinlari va keramika sanaladi. Serbiyadan asosan sanoat uskunalari, texnika, kosmetika mahsulotlari, qog‘oz, metall va mebel import qilinadi. Yurtimizda serbiyalik investorlar ishtirokida 9 ta korxona faoliyat yuritmoqda.

Tadbir davomida hamkorlikni xalqaro sanoat kooperatsiyasi, farmatsevtika, kimyo, qishloq xo‘jaligi, axborot texnologiyalari va moliyaviy sheriklik sohalarida rivojlantirish yo‘nalishlari belgilandi.

Sanoat yutuqlari taqdim etilgan ko‘rgazmada O‘zbekistonning 50 dan ziyod kompaniyasi farmatsevtika, kimyo, qurilish materiallari, qishloq xo‘jaligi va avtomobilsozlik mahsulotlari hamda innovatsion ishlannamalarni namoyish etdi.

Forum maydonida G2B va B2B uchrashuvlari ham tashkil qilinib, hamkorlik loyihalari bo‘yicha dastlabki kelishuvlarga erishildi.

Ishirokchilar O‘zbekiston va Serbiya hamkorligi yangi bosqichga ko‘tarilayotganini qayd etishdi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON UNESCO BOSH KONFERENSIYASINING 43-SESSIVASIGA MEZBONLIK QILIB, GLOBAL E‘TIBOR MARKAZIGA AYLANDI

SAMARQANDDA BO‘LIB O‘TADIGAN XALQARO FORUMNING XORIJIY ISHTIROKCHILARI ANJUMAN HAQIDA

Boshlanishi 1-betda



Maka BOCHORISHVILI, Gruziya tashqi ishlar vaziri:

— Eng avvalo, UNESCO Bosh konferensiyasining aynan shu yerdagi, O‘zbekistonda — tarix va madaniyatga boy, o‘zal Samarqand shahrida o‘tishi haqiqatan noyob hodisadir. Bu O‘zbekiston uchun tarixiy laha, men uchun esa bu yerdagi bo‘lish va ushbu betakror makonni kashf etish katta mamnuniyatdir.

Samarqandda Bosh konferensiyaning o‘tkazilishi O‘zbekistonning va shaxsan

Prezidentning o‘ziga xos yetakchiligini, shuningdek, mamlakatni jahon sahnasi markaziga olib chiqishga bo‘lgan intilishini namoyon etadi. Biz, gruzinlar bu yerdagi bo‘lishni ajoyib imkoniyat deb hisoblaymiz. Gruziya va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlarga katta ahamiyat qaratamiz va u jadal rivojlanmoqda.

Gruziya ham o‘z tarixi va madaniy meroslariga boy davlat. UNESCO doirasidagi hamkorlik biz uchun juda muhim. Ushbu tashkilot bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yganimiz va gruzin madaniyatini ilgari surish hamda gruzin tarixi butun dunyoda yaxshi tanilishi biz uchun katta ahamiyatga ega.

Bugun turli sivilizatsiya va madaniyatlarni birlashtiruvchi joyda ekanligimiz juda muhim. Bu haqiqatan noyob makondir. O‘zbekiston kabi Gruziya ham Buyuk ipak yo‘lining tiklanishida asosiy ishtirokchi hisoblanadi. Biz qadimiy Ipak yo‘lini yangi formatda ilgari surish va hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun tegishli ishlarni amalga oshiryapmiz.

Samarqand bu — boy tarix va madaniyatga ega go‘zal shahar. Bu yerdagi bo‘lish va go‘zal kenti o‘zimiz uchun kashf etish shodlik bag‘ishlayapti.



Kseniya LANES,

Belarus vakili:

— UNESCO Yoshlar forumining ahamiyati juda yuqori, chunki u butun dunyodan — turli mamlakatlar, mintaqalar va kasbiy sohalaridan yosh mutaxassislarni birlashtirdi. Aynan mana shu xilma-xillik forumni muloqot va g‘oyalar almashish uchun muhim platformaga aylantirdi.

Avvaliga forum va UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi Parijda emas, balki Samarqandda o‘tkazilishini bilib, hayron qoldim. Chunki UNESCO tadbirlari doim Parijda bo‘lib o‘tgan. Lekin bu yerga kelganimdan xursandman. Samarqand — bu hayratlanarli shahar: qadimiy, chiroyli, noyob me‘morchilikka va aqlbovar qilmas darajada mazali taomlarga ega.

Bu yerdagi ajoyib muhit hukmron, shuningdek, odamlari xotirjam, samimiy va juda mehmondo‘st. O‘ylaymanki, barcha ishtirokchilar unutilmas taassurotlar bilan qaytadi.

Men O‘zbekiston haqida avval ham bilardim. Ammo ko‘plab yangi do‘stlarim uchun, masalan, Monakodan kelganlar uchun bu haqiqiy kashfiyot bo‘ldi. Ular avval mamlakat haqida deyarli hech narsa bilishmaganini, endi esa uning madaniyati va odamlari haqida yorqin taassurotlarni o‘zlari bilan olib ketishlarini tan olishdi.

Shuning uchun forumning aynan Samarqandda o‘tkazilishi — nafaqat muhim xalqaro voqea, balki O‘zbekiston uchun o‘zini jahon maydonida namoyon etish, o‘z mehmondo‘stligi va boy madaniy merosini ko‘rsatish uchun ajoyib imkoniyatdir.

“Dunyo” AA

Samarqand

IPAK YO‘LI – SIVILIZATSİYALAR O‘RTASIDAGI MULOQOTNING YORQIN NAMUNASI



Boshlanishi 1-betda

Tadbirida tashkilot kun tartibidagi dolzarb masalalar, xususan, yoshlar siyosati, davlatlar, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, barqaror rivojlanish, inklyuzivlik masalalari muhokama qilindi.

So‘zga chiqqanlar kengash kun tartibi mazmunan boy ekanini hamda UNESCO faoliyati uchun muhim yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgani, madaniyatlararo muloqotni chuqurlashtirish raqamli davrda, ayniqsa, Ipak yo‘li bo‘ylab madaniy merosdan samarali foydalanish, barqaror turizmni rivojlantirish hamda mahalliy hamjamiyatlar hamkorligini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidladi.

— Ipak yo‘li sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqotning yorqin namunasi bo‘lib, tez sur‘atlarda raqamlashayotgan dunyoda madaniy almashinuv tinchlik, o‘zaro anglashuv va umumiy farovonlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi, — dedi UNESCO bo‘yicha O‘zbekiston Milliy komissiyasi raisi Gayane Umerova. — Milliy komissiyalar uchun bu jarayon madaniy merosni ta’lim, ijod va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtiruvchi innovatsion yondashuvlarni ilgari surish imkonini beradi. Bu orqali jamoalar, ayniqsa, yoshlar va mahalliy faollar o‘z madaniy resurslarining

ham saqlovchisi, ham foydalanuvchisi sifatida faol ishtirok eta oladi.

— O‘zbekiston UNESCOning Bosh konferensiyasini o‘tkazishni taklif etdi va oxirgi qirq yil ichida mazkur nufuzli tadbirni Parijdan tashqarida o‘tkazishga jur‘at etgan ilk davlatga aylandi, — deydi UNESCOning O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Sara Noshadi. — Bu haqiqatan tarixiy qaror bo‘lib, ikki yil avvalgi sessiyada barcha a‘zo davlatlar tomonidan yakdillik bilan qo‘llab-quvvatlandi. UNESCO uchun ko‘p yillar davomida konferensiyani Parijdan tashqarida o‘tkazish deyarli imkonsizdek ko‘ringan edi. Ammo bugun biz buning amalga oshganini ko‘rmqdamiz — bu O‘zbekistonning tashabbusi va qat’iyati tufayli ro‘y berdi.

Shu bilan birga, Bosh konferensiyaning ajralmas qismi sanalgan UNESCO Yoshlar forumi ham bo‘lib o‘tdi. Unda turli mamlakatlardan kelgan yosh delegatlar ishtirok etib, UNESCO mandati doirasidagi asosiy yo‘nalishlar, ta’lim, madaniyat, fan va kommunikatsiya masalalarini muhokama qildi. Bu uchrashuvlar yosh avlod ovoziini eshitish va ularning g‘oyalarini global kun tartibiga kiritish imkonini beradi.

O‘zaro hamkorlik aloqalari, ayniqsa, 2017-yil Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida keng ko‘lamli islohotlar boshlanganidan keyin yangi bosqichga ko‘tarildi. 2022-yilda Parijda O‘zbekiston va UNESCO o‘rtasida anglashuv

memorandumi imzolandi. U ushbu hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

Sara Noshadining qo‘shimcha qilishicha, bugungi kunda UNESCOning eng yirik ta’lim dasturlaridan biri O‘zbekistonda amalga oshirilmoqda. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan hamkorlikda yo‘lga qo‘yilgan ushbu dasturning asosiy maqsadi ta’lim sifatini oshirishdir. Chunki ta’lim tizimi muvaffaqiyati, avvalo, o‘qituvchiga bog‘liq.

Bundan tashqari, UNESCO bilan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamkorligida kasbiy-texnika ta’lim tizimini (TVET) isloh qilish bo‘yicha yaqin hamkorlik mavjud. Bir necha yil oldin boshlangan loyiha hozir yangi bosqichga chiqmoqda. Mamlakatimizning to‘rt hududi — Farg‘ona, Qoraqalpog‘iston, Samarqand va Toshkentda kasbiy mahorat markazlari, shuningdek, Surxondaryo, Buxoro va Namanganda pedagogik mahorat markazlari tashkil etilmoqda.

— Shu bilan birga, biz O‘zbekiston hukumati bilan madaniy merosni asrash va targ‘ib qilish sohasida yaqin hamkorlikdamiz, — deydi Sara Noshadi. — Albatta, mazkur yo‘nalish markazida Samarqand turibdi. Madaniyat sohasida O‘zbekiston yuqori darajadagi tashkilotchilik va ulkan ambitsiya bilan o‘z merosini jahon miqyosida namoyish etmoqda. Bu borada Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi hamda boshqa davlat tuzilmalari faol ishlamoqda. Faoliyatimizning asosiy yo‘nalishi madaniy merosni asrash va muhofaza qilishdir. O‘zbekiston Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida madaniyat sohasiga ajratilayotgan mablag‘lar bo‘yicha yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Bu esa mamlakatning o‘z tarixi va madaniy o‘ziga xosligi qimmatini chuqur anglatayotganidan darak beradi. Turizmning jadal rivojlanishi ham bu jarayonga katta hissa qo‘shmoqda.

Axborot va kommunikatsiyalar sohasida ham tashkilot bilan O‘zbekiston Bosh prokuraturasi hamda Sudyalari oliy maktabi hamkorligida qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Umuman olganda, Ipak yo‘li sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqotning yorqin namunasi sifatida raqamli dunyoda madaniy almashinuv, o‘zaro anglashuv va umumiy farovonlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Lutfulla SUVONOV,

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



“Dunyo” AA



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Yangi O‘zbekiston ruhi

Samarqand

JAHON MADANIYATI VA ILM-FANI CHORRAHASIDA



Ismoil SAIFNAZAROV,
falsafa fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

BMTning ixtisoslashgan ushbu idorasi tarixiy va madaniy obyektlarni saqlab qolishga qaratilgan faoliyati bilan tanilgan. UNESCOning Butunjahon merosi ro'yxatiga shu paytga qadar O'zbekistondagi 7 ta obyektlar kiritilgan. Bular — Xivadagi Ichan qal'a majmuasi, Buxoro shahrining tarixiy markazi, Shahrisabz shahrining tarixiy markazi, Samarqand — madaniyatlar chorrahasi, G'arbiy Tyanshan Buyuk ipak yo'lining Zarafshon-Qoraqum koridori va Turon cho'li.

UNESCOning yana bir ro'yxati Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxati deb nomlanadi. Unga o'zbek xalqi nomoddiy madaniy merosining 16 ta elementi (shundan 11 tasi 2016-yildan keyin) kiritilgan. Bular — shashmaqom, Boysun madaniy an'analari, katta ashula, askiya zukkolik san'ati, palov bilan bog'liq madaniyat va an'analar, Navro'z bayramini nishonlash an'analari, Marg'ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazi, atlas va adras tayyorlashning an'anaviy texnologiyalarini saqlash, lazgi, miniatyura san'ati, baxshichilik, an'anaviy ipak tayyorlash san'ati, Xo'ja Nasriddin haqidagi an'anaviy hikoyalar, kulochilik hamda naqqoshlik san'ati, iftorlik va uning ijtimoiy-madaniy an'analari, shuningdek, rubob yasash va ijro etish san'ati.

Hozir Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritish uchun "kashtachilik san'ati", "qoraqalpog' o'tovlarini tayyorlashda amaliy bilimlar va ko'nikmalar", "qo'biz yasash va ijro etish san'ati", "an'anaviy kigiz tayyorlash" va "o'zbek kurashi" kabi yangi elementlar UNESCOga taqdim qilingan.

1995-yil UNESCOning "Ipak yo'li" — muloqot yo'li" dasturi doirasida Samarqandda mintaqamiz sivilizatsiyalar tarixini o'rganadigan Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti ochildi.

Yana bir muhim yo'nalish UNESCOning Umumjahon biosfera qo'riqxonalari tarmog'i

bo'lib, unga O'zbekistonning 2 ta obyekti kiritilgan. Bular — Chotqol davlat biosfera rezervati va Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati.

Hamkorlikning muhim qismi bo'lgan innovatsiya yo'nalishi ham bor. 2019-2020-yillarda, ya'ni koronavirus pandemiyasidan keyin mazkur sohadagi aloqalar ancha rivojlandi. Xususan, UNESCO va O'zbekiston Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi bilan hamkorlikda tayyorlangan ilmiy tadqiqot ishlari va innovatsiyalarni xaritalash hujjati tuzilmaning elektron kutubxona xalqaro platformasida saqlanib turibdi.

2022-yilda O'zbekiston tarixda ilk bor 2022-2026-yillar uchun UNESCOning Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mitasi a'zolariga saylandi. 2022-yil 14-16-noyabr kunlari Toshkent shahrida 150 ga yaqin davlat vakillari va xalqaro tashkilotlar mutasaddilari ishtirokida UNESCOning maktabgacha ta'lim va tabiiy masalalari bo'yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston UNESCO bilan hamkorlik jarayonida ta'lim, fan va sport sohalaridagi xalqaro me'yor va tamoyillarni izchil amalga joriy etib kelmoqda. Bu boradagi muhim qadamlardan biri — mamlakatimiz 1997-yilda ta'lim tizimida tenglik va adolatni ta'minlash g'oyalari ilgari suradigan, 1960-yilda qabul



yaqinlashtirish, diplom va malakalarni o'zaro e'tirof etish, talabalar va olimlar mobiligini kengaytirishni ko'zda tutadi. Bunday tashabbus mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini xalqaro miqyosda yanada ochiq va raqobatbardosh etish, chet el universitetlari bilan hamkorlikni kengaytirish hamda o'zbekistonlik bitiruvchilarning xalqaro mehnat bozorida munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi.

siymolarning tavallud sanasi O'zbekistonda UNESCO shafeligida keng nishonlangan.

Jahonning ilg'or tajribasini chuqur o'rganish va jalb etish maqsadida yurtimizda UNESCO kafedralari tarmog'i kengaymoqda. O'zbekistonning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida "Dunyo dinlarini tadqiq etish", "Suv resurslarini boshqarish va atrof-muhit muhofazasi", "Madaniyat turizmi", "Ipak yo'li" barqaror tarixiy turizm" kabi kafedralar ochilgan. Xalqimizning noyob madaniy-tarixiy merosini asrash sohasida hamkorlikni yanada faollashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. UNESCO ko'magida mamlakatimizda "Sharq taronalari", baxshichilik san'ati, hunarmandchilik festivallari, "Maqom san'ati" kabi qator yirik xalqaro tadbirlar tashkil etilmoqda.

2023-yilga qadar UNESCOning "Jahon xotirasi" reyestriga O'zbekistondan Toshkent shahrida saqlanayotgan muqaddas Usmon mus'hafi, Beruniy nomidagi Sharqshunoslik universitetida saqlanayotgan qo'lyozmalar to'plami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari kiritilgan edi. 2023-2024-yillarda esa O'zbekiston tarixiga oid hujjatlar to'plami — Mavlono kulliyoti va Buxoro amirligining Qushbegi ma'muriyati arxivlari, Xudoybergan Devonov foto to'plami va Turkiston albomi ushbu reyestriga kiritildi.

2024-yilda O'zbekiston UNESCOning maslahatlashuv organi hisoblanmish Madaniy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish bo'yicha xalqaro tadqiqot markazining to'laqonli a'zosiqa aylandi.

2025-yil 1-aprel kuni UNESCO bosh qarorgohida O'zbekistonning boy madaniy merosi hamda Samarqand Bosh konferensiyasiga bag'ishlab "O'zbekiston Buyuk ipak yo'li chorrahasida" mavzusida tadbirlar o'tkazildi. Yurtimizda UNESCO bilan hamkorlikda turli sohalarda qator texnik ko'mak va grant loyihalari amalga

2022-2024-yillarda BMT Taraqqiyot dasturi, UNICEF va boshqa tashkilotlarning ko'magi tufayli O'zbekistonda kambag'allik darajasi 17 foizdan 8,9 foizga kamaydi. Bu esa atrof-muhit, madaniyat va turizmni har tomonlama rivojlantirishga zamin yaratdi.

qilingan Ta'lim sohasida kamsitishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilganidir. O'sha yilning o'zidayoq O'zbekiston 1989-yilda qabul qilingan Texnik va kasbiy ta'lim to'g'risidagi konvensiyaga ham qo'shildi. Ushbu qadam yoshlarning zamonaviy kasb va malaka egasi bo'lishi uchun imkoniyatlarni kengaytirish, ta'limni hayot bilan chambarchas bog'lashga xizmat qildi.

Shu tariqa mazkur muhim qadamlar O'zbekistonning xalqaro ta'lim makonida o'z o'rnini mustahkamlashi hamda inson salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan siyosatini chuqur ifoda etadi. Ushbu hujjatlarga qo'shilish mamlakatimizning ta'lim sohasida tenglik va sifat, yoshlar salomatligi va sog'lom turmush tarzini ta'minlash hamda kasbiy ta'limni jahon andozalariga mos ravishda takomillashtirish yo'lidagi qat'iy pozitsiyasini namoyon etadi.

Ayni paytda mamlakatimiz UNESCOning Oliy ta'lim sohasida malakalarni tan olish to'g'risidagi global konvensiyasiga qo'shilish bo'yicha amaliy ishlarni olib bormoqda. Ushbu konvensiya xalqaro ta'lim tizimini

O'zbekiston UNESCO bilan hamkorlikda ta'lim va fan sohasidagi ilg'or g'oyalarni hayotga tatbiq etish, xalqaro standartlarga muvofiq, malakali mutaxassislar tayyorlash yo'li izchil sa'y-harakatlarni amalga oshirib kelmoqda. Bu jarayonda mamlakatimiz nafaqat a'zo davlat sifatida, balki ilmiy-innovasion tashabbuslarni ilgari surayotgan faol hamkor sifatida namoyon bo'layotir.

UNESCO shafeligida O'zbekistonda ko'plab ishlar qilingan. Xususan, Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yillik, Abu Ali ibn Sino tavalludining 1000 yillik, Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yillik, Amir Temur tavalludining 660 yillik tantanalari keng nishonlangan. Xiva, Buxoro, Termiz shaharlarining 2500 yilligi, Shahrisabzning 2700 yilligi munosabati bilan maxsus dasturlar doirasida yirik tadbirlar uyushtirilgan. Imom Buxoriy, Ahmad Farg'oni, Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband kabi qator

Tarixiy voqea

ORTGA QAYTMAS ISLOHOTLARGA BERILGAN MUNOSIB BAHO

Jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri sanalgan Samarqand shahri bugun xalqaro hamjamiyat diqqat markazida bo'lib turibdi. Joriy yilning 30-oktabridan 13-noyabrigacha davom etadigan UNESCO Bosh konferensiyasi nafaqat mamlakatimiz, balki butun mintqa uchun tarixiy ahamiyatga ega voqeadir.

qizg'in kutib olayotgan bo'lsa, 15 kun mobaynida konferensiyani yuksak saviyada o'tkazishga har tomonlama tayyor.

Ushbu yirik xalqaro konferensiya bilan bog'liq muhim jihatlar talaygina. Aytaylik, UNESCO konferensiyasi Parijdan tashqarida deyarli o'tkazilmagan. Yangi O'zbekistonga ushbu yuksak mas'uliyat ishonib topshirilganining o'ziyoq mamlakatimizda kechayotgan ortga qaytmas islohotlarga xalqaro hamjamiyat katta ishonchining yorqin namunasidir.

Bu xalqaro anjumanga mezbonlik, o'z navbatida, Samarqandni jahon diplomatiyasi va madaniy muloqot markazlaridan biri sifatida namoyon etmoqda. Zero, 190 dan ortiq davlat vakillari, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, fan, madaniyat va ta'lim sohasi mutaxassislari ishtirok etishi kutilayotgan mazkur anjuman global masalalarni muhokama etish uchun muhim maydonga aylandi.

Ha, Samarqand mezbonligi — bu O'zbekistonning madaniyat, ilm-fan, ta'lim,

UNESCO Bosh konferensiyasi mamlakatimizda suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat — yangi O'zbekistonni barpo etish siyosati qat'iy davom etayotganini yana bir bor namoyon etadi. Bu esa xalqaro maydonda mamlakatimiz nufuzini yanada yuksaltirish, huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlash va jahon hamjamiyati bilan muloqotni chuqurlashtirishga salmoqli hissa qo'shadi.

kommunikatsiya va axborot sohalaridagi yutuqlari hamda boy tarixiy va madaniy merosiga xalqaro hamjamiyat tomonidan berilgan yuksak bahodir.

Bosh konferensiya doirasida O'zbekiston tomonidan UNESCO bilan hamkorlikda qator qo'shma tadbirlar o'tkazilishi ham rejalashtirilgan. Muzeylar faoliyatida sun'iy

intellekt texnologiyalarining o'rni, gender tenglik va xotin-qizlarning imkoniyatini kengaytirish kabi boshqa masalalar dolzarb mavzu sifatida muhokama etilishi kutilmoqda.

Adliya organlari uchun ham bu jihatlar xalqaro tajribani o'rganish, ilg'or amaliyotni tatbiq etish, huquqiy sohadagi hamkorlikni mustahkamlash uchun muhim imkoniyat. Bunday anjuman orqali O'zbekistonda xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish, huquqlarini himoya qilish, gender tenglikka qaratilgan ishlarni yoritiladi.

Samarqandda bo'lib o'tadigan UNESCO sessiyasi doirasida yurtimizning xalqaro huquqiy maydondagi ishtiroki yanada faollashadi. Binobarin, bu tadbir nafaqat madaniy muloqot, balki o'zaro fikr almashish, ilg'or tajribalarni joriy etish, adolat va insonparvarlik g'oyalari yanada mustahkamlash uchun katta maydondir.

UNESCO Bosh konferensiyasi mamlakatimizda suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat — yangi O'zbekistonni barpo etish siyosati qat'iy davom etayotganini yana bir bor namoyon etadi. Bu esa xalqaro maydonda mamlakatimiz nufuzini yanada yuksaltirish, huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlash va jahon hamjamiyati bilan muloqotni chuqurlashtirishga salmoqli hissa qo'shadi.

O'zbekiston BMTning nufuzli idorasi bilan hamkorlik orqali nafaqat madaniy turizm sohasida salmoqli natijalarga erishdi, balki ko'plab sohalarda barqaror rivojlanishga faol yordam berdi. Mamlakat mintaqada birinchilardan bo'lib BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarini o'zining milliy strategiyasiga kiritdi, 2018-yilda Barqaror rivojlanish maqsadlarini yaratdi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha Milliy muvofiqlashtiruvchi qo'mita 2020-yilda milliy sharoitlarni aks ettiruvchi 125 ko'rsatkichdan iborat ro'yxatni ishlab chiqishni yakunladi. 2024-yilga kelib, O'zbekistonning Barqaror rivojlanish maqsadlari global indeksdagi reytingi 19 pog'ona ko'tarilib, eng tez rivojlanayotgan mamlakatlar beshligiga kirdi.

2022-2024-yillarda BMT Taraqqiyot dasturi, UNICEF va boshqa tashkilotlarning ko'magi tufayli O'zbekistonda kambag'allik darajasi 17 foizdan 8,9 foizga kamaydi. Bu esa atrof-muhit, madaniyat va turizmni har tomonlama rivojlantirishga zamin yaratdi.

O'zbekiston BMTning ko'p tomonlama munosabatlarida ham faol ishtirok etmoqda. 2018-yildan 2025-yilgacha O'zbekiston BMT Bosh Assambleyasining barqaror turizm va Orolbo'yi atrof-muhitini muhofaza qilish kabi masalalarni qamrab olgan 13 ta rezolyusiyasi tashabbusi bilan chiqdi. O'zbekiston BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashiga 2021-2023-yillarga saylangan hamda ayni paytda BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi va Xalqaro mehnat tashkiloti kabi bir qancha organlarda ham faoliyat yuritadi.

Umuman olganda, Samarqand boy tarixi va merosi bilan UNESCOning maqsad va vazifalariga mos keladi. Yirik konferensiyaning azim kentda o'tkazilishi O'zbekistonning jahon madaniyati va ilm-faniga qo'shayotgan hissasini yana bir bor e'tirof etadi. Zero, Samarqand tarixan turli madaniyatning chorrahasi bo'lib kelgan.

Konferensiya madaniyatlararo muloqot sohasida tajriba almashish, ilg'or usullarni keng qo'llash va yangi hamkorlik aloqalarini o'rnatish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Xalqaro tadbirida qatnashuvchilar Samarqandning tarixiy va madaniy yodgorliklari bilan tanishish, o'zbek xalqining boy merosi va an'analarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa shaharning sayohlik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihati shundaki, konferensiyada jahonning yetakchi olimlari, madaniyat arboblari va ekspertlari ishtirok etadi. Ularning o'zaro fikr almashishi, qo'shma loyihalar bo'yicha kelishuvlarga erishishi ilmiy va madaniy hamkorlikni yanada rivojlantirishga turki beradi.

UNESCO Bosh konferensiyasining Samarqandda o'tkazilishi mamlakatimiz uchun katta sharaflar va mas'uliyatdir. Bunday nufuzli tadbirning muvaffaqiyatli o'tkazilishi O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'sini yanada oshiradi, madaniyatlararo muloqot va ilmiy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Samarqand yana bir bor jahon madaniyati va ilm-fani markazi sifatidagi mavqeini namoyon etadi.



Boshlanishi 1-betda

Ayniqsa, davlatimiz rahbarining AQSH Prezidenti bilan uchrashuvini xalqimiz katta hayajon bilan kuzatdi. Janob Donald Tramp Prezidentimizning fazilatlarini alohida e'tirof etib, ijtimoiy tarmoqda qo'zal post qoldirdi.

Mamlakatimizda Orolbo'yi ekotizimini qayta tiklash bo'yicha izchil davom ettirilayotgan ishlar, xususan, so'nggi yillarda dengizning qurib qolgan tubidagi 2 million gektar maydonda sho'rga chidamli cho'l o'simliklari ekilgani, 2030-yilgacha ushbu hududning 80 foizida yashil qoplamalar hosil qilinishi haqidagi ma'lumotlar dunyo hamjamiyatini O'zbekiston qanday davlat ekani haqida chuqurroq mulohaza qilishga undadi.

Mamnuhiyat bilan ta'kidlash kerakki, yangi O'zbekistonni yaratish g'oyasi bugun real voqelikka aylandi. Bugun odamlarni rozi qilish, haq-huquqlarini himoya etish, yaxshi yashashini ta'minlash davlat va jamoat tashkilotlarining asosiy maqsadiga aylandi. Mana shu islohotlar jarayonida yurtimizdagi eng nufuzli jamoat tashkiloti — kasaba uyushmalari faoliyat yo'nalishlarini takomillashtirish, imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi, yangi sharoitda ishlashi uchun huquqiy asos yaratildi. Yangi tahrirdagi "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

Xalqni ijtimoiy himoyalash, ishchi-xodimlar huquqlarini muhofaza qilish sohasida boshlangan savobli ishlar kasaba uyushmalari faoliyat yo'nalishlari bilan uyg'unlashdi.

So'nggi yillardagi tub islohotlar jarayonida kasaba uyushmalari ham faol ishtirok etib, ishchi-xodimlar haq-huquqini, ijtimoiy manfaatlarini himoya qiluvchi, xodim va ish beruvchi o'rtasidagi aloqaning eng muhim ishonchli ko'prigiga aylandi. Davlatimiz rahbari uchrashuv chog'ida mazkur ishlarni yanada rivojlantirish borasida qator vazifalarni belgilab berdi.

Mehnat munosabatlarini tartibga solish, xodimlarning qonuniy huquqlarini himoya qilish, adolati mehnat sharoitlarini yaratish har doim dolzarb masalalardandir. Chunki davlat va byudjet tashkilotlari yoki xususiy sektorda ishlayotgan ba'zi fuqarolar turli qonunbuzarliklarga, deyslik mehnat haqi vaqtida to'lanmasligi kabi holatlarga duch kelmoqda. Kasaba uyushmalari vakillari o'z kuzatuvlari va tahlillariga tayangan holda bunday muammolar yechimini topishda ishchi-xodimlarga ko'makdosh bo'lyapti. Endi bu boradagi ishlar ham yangi bosqichga ko'tariladigan bo'ldi. Ya'ni xodimlar uy-joy, sifatlari ta'lim, tibbiyot va transport xizmatlari bilan kafolatli ta'minlanadi. Muhimi hayotiy ehtiyojlariga yetadigan daromad topishiga sharoit yaratib berish choralarini ko'riladi. Davlatimiz rahbarining "Shu o'rinda bir haqiqatni yaxshi tushunib olishimiz kerak: inson qadri, uning hayot sifati faqat ish haqi bilan emas, balki ijtimoiy muhit bilan ham belgilanadi" degan so'zlari hech shubhasiz, yurakdan chiqib yuraklarga yetib bordi.

Mamlakatimizdagi islohotlar ishtirokchisi sifatida jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarni doimo kuzatib boraman. Tashkil etilganining 120 yilligini nishonlayotgan O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi o'tmishda bu qadar nufuzga ega bo'lganini, xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilganini eslay olmayman.

O'zbekiston Xalqaro mehnat tashkiloti standartlarini qabul qilayotgan eng faol davlatlar safidan joy olayotgani dunyo hamjamiyati tomonidan ham e'tirof etilmoqda. Sakkiz yil oldin ushbu tashkilotning O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan hujjatlari soni 12 ta edi. Hozir bu ko'rsatkich 25 taga yetdi. Bundan tashqari, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Xalqaro kasaba

uyushmalari Konfederatsiyasiga a'zo bo'lgani, respublikamiz tashabbusi bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari kengashi tashkil etilgani, Samarqand shahrida turkiy davlatlar kasaba uyushmalari tashkiloti tuzilgani xalqaro hamjamiyat e'tirofi, albatta.

Qariyb 50 yildan buyon kasaba uyushmalari bilan hamkorlik qilib kelaman. Turli lavozimlarda ishlaganimda kasaba uyushmalari mehnat inspeksiyalari bilan ba'zi muammoli masalalarda maslahatlashgan paytlarim bo'lgan. Keyinchalik bilishimcha, mehnat huquq inspeksiyalari tugatib yuborilgan ekan. Oradan bir oz muddat o'tib, bu inspeksiyalar qayta tiklanganini eshitib, mamnun bo'ldim.

berish bo'yicha ilg'or tajribasi Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan namuna sifatida boshqa davlatlarga tavsiya etildi. Bunday o'zgarishlar hayotimizda mutlaqo yangi sahifalar ochmoqda. Buni yuqorida ta'kidlangan AQSHga safar misolida ham, Samarqandda bo'lib o'tishi kutilayotgan UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi timsolida ham ko'rishimiz mumkin.

Ana shunday katta o'zgarishlar jarayonida Kasaba uyushmasining ham o'rni borligi quvonarli. Misol uchun, joriy yilning o'tgan davrida Qashqadaryo viloyati Kasaba uyushmalari kengashi tomonidan 348 ta korxona, tashkilot va muassasada mehnat



Kasaba uyushmalari zimmasiga xodimlar huquqlarini himoya qilish yuklatilgan bo'lsa-yu, uning huquqiy asoslari ko'lmasa, bu, albatta, mantiqqa zid edi.

Umuman keyingi yillarda inson huquqlari kafolati borasida katta yutuqlarga erishdik. Masalan, mamlakatimizda majburiy mehnat va bolalar mehnati juda og'irli nuqtamiz edi. Prezidentimizning kuchli iroda, qat'iy pozitsiyasi sabab bu murakkab muammo joriy hal qilindi. Shu orqali yangi O'zbekiston insonparvarlik tamoyillariga sodiq ekanini dunyo ahli tan oldi. Hatto mamlakatimizning bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham

qonunlari bajarilishiga rioya etilishining ahvoli o'rganilib, qayd qilingan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatildi.

O'tgan olti oy mobaynida viloyat Kasaba uyushmalari kengashiga fuqarolardan og'zaki, yozma, elektron va "ishonch telefoni" orqali 176 ta murojaat kelib tushdi. Bu murojaatlarning 79 tasi qanoatlantirilgan bo'lsa, 89 tasi bo'yicha huquqiy maslahat berildi, 8 tasi esa tegishliligi bo'yicha boshqa organlarga yuborildi. Qonunga zid tarzda ishdan bo'shatilgan 28 nafar xodim qayta ishga tiklandi. Qonun buzilishining oldini olish bo'yicha 15 ta ish beruvchiga yozma ko'rsatma berildi. Shuningdek, 6

nafar fuqaroning murojaatlari bo'yicha sud organlariga da'vo arizalari kiritildi. Natijada mehnatkashlarning 2 milliard 995 million 235 ming so'm ish haqlari va boshqa to'lovlari undirib berildi.

Joriy yilning o'tgan davrida xodimlar mehnatini muhofaza qilish, ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilishi bo'yicha 21 ta tashkilotda jamoatchilik nazorati o'tkazildi. Bu jarayonda 119 ta kamchilik aniqlanib, 17 ta ko'rsatma kiritildi va kamchiliklar bartaraf etilgani to'g'risida yozma ma'lumotlar olindi. Jamoatchilik nazorati natijasida kiritilgan ko'rsatmalarga asosan 4922 ishchi-xodimning 675 million 900 ming so'mlik ish haqlari undirib berildi.

O'tgan asming 70-yillarida Qarshi cho'li o'zlashtirilishi munosabati bilan Qashqadaryoda mehnat qilayotgan turli millat vakillarining farzandlari dam olish uchun qo'shimcha 10 tadan ortiq bolalar dam olish oromgohi tashkil etilgani. O'sha yillari viloyatning tog'li hududlarida 40 ga yaqin bolalar oromgohi faoliyat ko'rsatgan.

Oradan yillar o'tib, tasarrufida oromgohi mavjud tashkilot va korxonalarining mulk shaklini o'zgartirishi yoki moliyaviy ahvoli yomonlashgani, agrar sohadagi o'zgarishlar va boshqa sabablar tufayli ko'plab bolalar oromgohlari tugatib yuborildi. Bunday holatni butun mamlakatda kuzatish mumkin edi.

O'sha yillari O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi rahbariyati bolalar oromgohlarini saqlab qolish tashabbusi bilan chiqqanini, sohaga doir yig'ilishlarda o'z fikrlarini kuzinchilik bilan bildirganini yaxshi eslayman. 2022-yil 18-noyabrda Prezidentimizning "Bolalarning dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog'lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori sohada yangi davrni boshlab berdi. Qarorga binoan Bolalar sog'lomlashtirish va aholi salomatligini tiklashga ko'maklashish jamg'armasi hamda Bolalarning dam olishini va sog'lomlashtirilishini tashkil etish departamenti tuzildi. Mazkur o'zgarishlar natijasida sotish, xususiy lashtirish yoqasida turgan o'nlab bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari saqlab qolindi. Hozir viloyatda 18 ta bolalar dam olish maskani faoliyat ko'rsatmoqda.

Bugun Qashqadaryo vohasining xushmanzara, bahavo tog'li hududlarida joylashgan mazkur maskanlarda har yili yozgi ta'til davrida 24 mingdan ortiq bolalar dam olyapti. Biz bir guruh nuroniyalar har yili

sog'lomlashtirish mavsumida Bolalarning dam olishini va sog'lomlashtirilishini tashkil etish departamenti viloyat boshqarmasi taklifiga ko'ra, bolajonlarni oromgohlarga kuzatish tadbirlarida ishtirok etamiz. So'lim maskanlarda dam olayotgan maktab o'quvchilari bilan uchrashuvlar o'tkazamiz.

Qashqadaryoda bolalarni oromgohlarga kuzatish va kutib olish tadbirlari uzoq yillardan buyon bayramona tarzda tashkil etib kelinadi. Bolajonlar har safar ota-onalar, hokimlik, huquqni muhofaza qilish organlari vakillari ishtirokida nuroniy oqsog'qollarning oq fothasi bilan kamay-sunmay sadolari ostida viloyat bo'yicha bir kunda oromgohlarga jo'natiladi. Bunday tadbirlar farzandlarimizning xotirasida bir umr qolishi bilan juda ahamiyatlidir.

Viloyatdagi "Lochin" va "Sho'rtan qaldirg'ochi" bolalar oromgohlariga har yili yoz oyida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidan yuzlab bolalar dam olish uchun keladi. Mazkur maskanlarda barcha sharoitlar yaratilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan aholining hordiq chiqarishi va salomatligini tiklashi uchun Toshkent viloyatidagi "Sevarsoy", Surxondaryo viloyatidagi "Sangardak", "Xo'jayipok" va shunga o'xshash ko'plab sanatoriylar qurilib, ishga tushirildi. Kelgusi yili vohamizning so'lim hududlaridan biri — Shahrisabz tumanida dam olish maskani barpo etish rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, turli hududlardagi zamonaviy dam olish maskanlarida mehnatkashlar hordiq chiqarishi uchun imtiyozlar berilmoqda. Birgina shu yil boshidan hozirga qadar viloyatdagi korxona va tashkilotlarda ishlovchi 900 xodim va ularning keksa yaqin qarindoshlari dam olish maskanlarida imtiyozli dam oldi. Mazkur maqsadlar uchun 4 milliard 226 million 717 ming so'm sarflandi.

Yangi tahrirdagi "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi, Federatsiya tasarrufida malaka oshirish instituti, mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi tashkil etilishi, kasaba uyushmalari muzeyi ochilishi, har yili o'nlab sanatoriylar, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari foydalanishga topshirilayotgani sohadagi ishlar ko'lami yanada kengayayotganidan dalolat.

Shu bilan birga, 11-noyabr kasaba uyushmalari bayrami sifatida keng nishonlanmoqda, Toshkent shahri markazidagi ta'minalab tarixiy konsert zali Prezidentimiz tashabbuslari bilan Kasaba uyushmalari saroyiga aylantirildi.

Bugun yangi O'zbekistonni barpo etishdek buyuk maqsadlarimiz ijobatida, "Inson qadri uchun" g'oyasini umummilliy harakatga, yurtimizni keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylantirishda davlat va jamoat tashkilotlari bilan bir qatorda kasaba uyushmalarining ham munosib hissasi bor.

Kamolot pillapoyasi

IKKI MILLION DOLLARLIK LOYIHA

YOSHLAR TAQDIM ETGAN STARTAPLAR NIMASI BILAN E'TIBORNI TORTADI?

Prezidentimiz yaqinda AT parkka tashrifi chog'ida sun'iy intellekt texnologiyalarini vazirlik va idoralar faoliyati hamda boshqa sohalarga keng tatbiq etishga qaratilgan loyihalar taqdimoti bilan ham tanishgandi. Davlatimiz rahbariga taqdim etilgan loyihalar orasida iqtidorli yoshlarning mehnat mahsuli — "KotibAI" hamda "Detecting-AI.com" innovatsion ishlarnamalari ham bor edi.

Ushbu loyihalar nimasi bilan ahamiyatli? Ulardan kutilayotgan natija qanday? Mazkur savollar bilan loyiha mualliflariga murojaat qildik.

— "KotibAI" sun'iy intellekt asosida ishlovchi yordamchi platforma bo'lib, hujjatlar bilan ishlash, matnlarni tahrirlash va tarjima qilish jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan Platforma xodimlarning salohiyatini ro'yobga chiqaradigan, samaradorlikni oshirishga yordam beradigan sun'iy tafakkur xizmatlari ekotizimi, — deydi loyiha asoschisi Samandar Tursunaliyev. — Loyihamiz bugun keng qo'llanyapti. Uch oyda 50 ta eng katta korporatsiyaning doimiy takrorlanadigan ishlarini sun'iy intellektga o'tkazib berdik. Bu bilan ishchi o'rni qisqarmaydi. Sun'iy intellekt xodimga ko'mak beradi, xolos. Loyiha doirasida 8 ta sun'iy intellekt agenti faoliyati yo'lg'a qo'yilgan. Har bir agentning o'z vazifasi bor va u ishini yengillashtiradi. Misol uchun, loyihaning eng muhim yo'nalishlaridan biri — "Kotib Analytics" tufayli kompaniyaga qo'ng'iroqlarni tanlab tinglash uchun ko'p vaqt sarflash shart emas. Deylik, qo'ng'iroqni tinglab, javob berishga mas'ul xodim belgilangan muddatda barcha murojaatga javob berishga ulgurmasligi mumkin. Bu muloqotning sifatiga ta'sir qiladi. Xodim bir kunda 50 ta qo'ng'iroqni nazorat qilishi mumkin. Sun'iy intellekt

agenti esa minglab qo'ng'iroqlarni tahlil qilish imkoniga ega. Tizim muloqotni 100 foiz tahlil qiladi va tayyor xulosa beradi. Vaqt 75 foizgacha tejraladi. Ish sifati oshadi. Belgilangan vaqtda katta hajmdagi ishini bajarish mumkin.

Sun'iy intellekt tahlili barcha xodimlar va bo'limlar uchun obyektiv nazorat



o'qitilgan sun'iy intellekt yordamida 60 foizgacha javoblarni avtomatlashtiradi. Bu ularning kutish vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi.

Startaplar — innovatsion kelajakni belgilaydigan kuch. Ular yoshlarga yangi imkoniyat beradi, iqtisodiyotni modernizatsiya qiladi va mamlakatni raqamli rivojlanish yo'lida olg'a siljitadi. "KotibAI"dan o'rin olgan "aqlli yordamchi"lar faoliyatini kuzata turib, bunga yana bir karra amin bo'lasiz.

— Platformadan o'rin olgan "Kotib Assist" matn, audio va video bilan ishlash uchun aqlli yordamchimizga aylanishi mumkin, — deydi Samandar Tursunaliyev. — U ovozni matnga o'girish, matnini ovoztashtirish, ko'p tilli tarjima xizmatini bajara oladi. Bu, ayniqsa, jurnalistlar uchun qo'l keladi. Ovozli yozuvni soatlab o'tirib matnga o'girishga zarurat qolmaydi. Buni sun'iy intellekt agenti

bir necha daqiqada bajaradi. Tadbirlardan tayyorlanadigan tezkor lavhalarida soha xodimlariga yaxshi yordamchi bo'la oladi.

Loyihadan o'rin olgan aqlli yordamchi "Kotib Event" tadbirlarni o'tkazishda ko'mak beradi. Sinxron tarjima qiladi, tadbirga kelgan odamlarni topishni osonlashtiradi. Networkingni yaxshilaydi. "Kotib Dialogue" esa chatlarda axloqiy marketing uchun intellektual yordamchi vazifasini bajaradi. Muammo haqida gapirgan mijozlarni topadi va ularning roziligi bilan yechim taklif qiladi.

O'zini oqlagan startaplar an'anaviy biznesga qaraganda sohani tezroq rivojlantirishga xizmat qiladi. "KotibAI" ham barcha sohaga ta'siri orqali mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shayotgan loyihalaridan biridir.

"Detecting-AI.com" esa sun'iy intellekt yordamida yaratilgan matn, ovoz va video kontentni aniqlovchi global platforma bo'lib,

halollik, axborot xavfsizligi hamda raqamli ishonchlilikni ta'minlashning ta'sirli yechimi.

— Hozir soxta qo'ng'iroqlar, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan siyosiy, tijoriy yoki shaxsiy obro'ga putur yetkazuvchi yolg'on video va ovoqli xabarlar ko'payib bormoqda, — deydi startap muallifi Abdulla Abdurazzoqov. — Masalan, mashhurlarning ovozi yoki yuzidan foydalanib, odamlarni aldash, pul undirish, yolg'on xabarlar tarqatish holatlari ko'payib bormoqda. Bizning yechim shu kabi tahdidlarni bartaraf etishga yordam beradi. Platforma siz telefonda gaplashayotgan yoki videoda ko'rayotgan inson haqiqiy yoki sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan nusxami — shularni aniqlaydi.

Ayni paytda sun'iy intellekt hayotimizning barcha jabhasiga kirib kelmoqda. Talabalar uy vazifasi yoki ilmiy ishlarnamalarni uning yordamida bajarish holatlari ko'payib bormoqda. Bu holatlar o'quv jarayonini yengillashtirsa-da, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik qobiliyatini susaytiradi.

"Detecting-AI.com" ana shunday tahdidlarga qarshi kurashish uchun matn, audio va videoni tahlil qiluvchi multimodal aniqlash tizimini taklif etadi. Platforma so'zdagi soxtalik, ovozdagi klonlash va videodagi yasama harakatlarni aniqlaydi. Ya'ni yolg'on kontent tarqatish orqali kelib chiqadigan firibgarlik, siyosiy manipulyatsiya va axborot xurujlariga qarshi himoya vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Har bir natija bo'yicha ishonch darajasi, izohlangan tahlil, shuningdek, universitetlar, tashkilotlar va hukumatlar uchun integratsiya imkoniyatlari mavjud. Platforma yaqin orqali aniqlik, tezkor ishlash va xalqaro standartlarga mos natijalarni ta'minlaydi. Bozordagi potensial talab, investitsiaviy jozibadorlik ushbu innovatsion g'oyani xaridorgir mahsulotga aylantiradi.

Loyihamiz qiymati 2 million dollarga baholangan. Dunyo bo'yicha 350 mingdan ziyod foydalanuvchi va 200 dan ortiq universitetlarda platforma keng qo'llanmoqda. 1000 dan ziyod professor va o'qituvchi "Detecting-AI.com"dan foydalanib kelmoqda. AQSH, Yevropa Ittifoqi va Yaqin Sharq mamlakatlariidagi mijozlarimiz platformaning xalqaro darajadagi ishonchliliigi hamda amaliy ahamiyatini tasdiqlamoqda, — deydi Abdulla Abdurazzoqov. — Mijozlarimizning asosiy qismi universitetlar, ilmiy-tadqiqot markazlari, ta'lim muassasalari va axborot xavfsizligi sohasidagi tashkilotlardir. Platforma o'zbek, ingliz va boshqa tillarda ishlaydi.



Loyiha jamoasi O'zbekiston bozori uchun maxsus versiya — "DetectingAI.uz"ni ishga tushirmoqda. U vazirliklar, mahalliy universitetlar va boshqa ta'lim muassasalariga mo'ljallangan bo'lib, plagiatni aniqlash, so'z erkinligini muhofaza qilish va raqamli xavfsizlikni ta'minlashda qo'l keladi.

Risolat MADIYEVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

IV
“Odamiy” so‘zi. Bu so‘z “Odam” ismidan yasalgandir. “Odam” birinchi insonning oti bo‘lib, “iy” nisbat qo‘shimchasi. Shuning uchun “odamiy” so‘zining ma‘nosi odam bolasiga to‘g‘ri keladi va bunda insondagi azaliy ezu xususiyatlar e‘tiborga olinadi. “Odamiy”ning mazmunini Navoiy juda go‘zal shaklda ifodalagan:

Odamiy ersang, demagil odamiy, Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Bu baytda “Inson xalqqa xizmat qilishi kerak” degan fikr aytilib, xalqparvarlik g‘oyasi targ‘ib qilingan. Agar Navoiy bu fikrni yuqoridagi shaklda ifodalamaganda edi, uni hech kim yodlamas va bu ibora kishilarni xalqqa xizmat qilishga undash vazifasini asrlar davomida bajara olmas edi.

Birinchidan, bu baytda til qoidalariga rioya qilingan, she‘riy vositalarning hech biri unga salbiy ta‘sir ko‘rsatmagan. Natijada fikr o‘zining go‘zal badiiy ifodasini topgan.

Ikkinchidan, vatanparvarlik va shaxsiyatparastlik kabi qarama-qarshi xususiyatga ega bo‘lgan ikki turdagi kishi bir so‘z, ya‘ni “odamiy” so‘zi bilan ifodalangan va ziddiyat boshqa so‘z, ya‘ni “demagil” fe‘li bilan ifodalangan. Natijada har ikki turdagi kishining tashqi ko‘rinishda bir xil ekani, lekin mohiyat nuqtayi nazaridan, ya‘ni fe‘liga ko‘ra butunlay bir-biriga qarama-qarshi vujud ekani shaklda ifodlangan.

Uchinchidan, shoir misrani “odamiy” so‘zi bilan boshlab, shu so‘z bilan tugatgan. Bu bilan u odamiylik masalasining kengligini har bir harakatning boshlanishida va oxirida, ya‘ni natijasida odamiylik bo‘lishi kerakligini ta‘kidlagan. Bu yerda so‘zning o‘rni shu so‘z bilan ifodalangan xislatning martabasi ulug‘ligini ko‘rsatib turibdi.

To‘rtinchidan, Navoiy ehtiyoj va uni qondirishga qaratilgan faoliyatni bir so‘zning ikki formasi, “g‘am” so‘zining “g‘amidin” va “g‘ami” formalarini bilan ifodalab, bu ikki narsa umumiy bir ijtimoiy hodisaning ikki jihatidan iboratligini ravshanlashtirgan.

Beshinchidan, bu so‘zlarning yonma-yon berilishi shaxs faoliyati xalq manfaatidan uzoq bo‘lmashligi lozim, ularni bir-biridan ajratadigan hech narsa bo‘lishi kerak emas degan mazmunni anglatuvchi shakliy vosita bo‘lib, ular orasidagi bog‘liqlik shaxsiy manfaat bilan ijtimoiy manfaat bir-birini taqozo qilishini ko‘rsatuvchi dalildir.

Oltinchidan, san‘atkor ham xalqqa, ham shaxsga nisbatan g‘am so‘zini qo‘llab, “g‘ami” yo‘q kishining odamiy emasligini shaklan tasdiqlagan: xalq odamiylar yig‘indisidan iborat. Demak, xalqda bor “g‘am”ning bir ulushi unga a‘zo bo‘lgan yakka shaxsda ham bo‘lishi kerak. Agar unda bu narsa bo‘lmasa, uning a‘zolik da‘vosini qilishga haqi ham yo‘q. Odamiy esa jamiyatsiz yashay olmagani uchun unday shaxsni “odamiy” deb hisoblash ham kerak emas.

Yettinchidan, qofiya xushohang, baytning ma‘no va boshqa shakliy vositalariga salbiy ta‘sir qilmagan, aksincha, ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan. Bunda “odamiy”ning qofiyaga tushishi uning muhimligini va “g‘ami” so‘zining uzoq qofiyalanishi g‘amning odamiyga aloqador xususiyat ekani shaklda tasdiqlagan.

Sakkizinchidan, vazn ravon chiqqan va vazn tufayli na til qoidasi buzilgan, na ma‘no zarar ko‘rgan va na boshqa badiiy vositalarga xalal yetgan.

To‘qqizinchidan, so‘zlarni takrorlash, ortiqcha so‘z va gap bo‘laklarini tushirib qoldirish hisobiga mo‘jizlikka erishilgan, oz so‘z bilan ko‘p ma‘no ifodalangan.

O‘ninchidan, xalqni o‘ylamaydigan kishiga bo‘lgan salbiy munosabat qo‘pol so‘zlar bilan ifodalanmagan. “Odamiy demagil” degani fikr nuqtayi nazaridan “hayvon” degani bilan barobar. Lekin birinchisi odob doirasidagi fikr ifodasi,




ikkinchisi odobdan tashqaridir. Fikrni beadab shaklda ifodalaganda, u qanchalik to‘g‘ri bo‘lmasin, o‘quvchi yoki eshituvchiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

“Shoir” so‘zi. “Shoir” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi tuyg‘uchi bo‘lib, urfiy ma‘nosi she‘rchidir. “She‘r”ning lug‘aviy ma‘nosi “tuyg‘u” bo‘lib, urfda asosan hissiyot va qisman tafakkur, qisqacha qilib aytganda, zavq natijasida vujudga kelgan badiiy so‘zlamni bildiradi. Ammo “shoir” so‘zi o‘zining bildirmishi nuqtayi nazaridan teran mazmunga ega bo‘lib, maxsus fazilatga ega bo‘lgan kishini bildiradi. Bunday kishi birinchi navbatda, inson darajasiga erishishga harakat qilishi shart. Bu faqat shoirga emas, hamma uchun kerak. Lekin bu bo‘lmasa, shoirlikning poydevori, sodda qilib aytganda, tagi bo‘sh bo‘ladi. Poydevori bo‘sh imorat yemirilganidek, insoniy asosi sust bo‘lgan shoirming she‘ri ham, o‘zi ham tez shikast yeydi.

Hozir kitobxonlarimizda “Biz inson bolasi bo‘lsak, inson darajasida emasimizni, yana ko‘tarilishimiz kerak bo‘lgan qanday insoniy daraja bor?”, degan savol tug‘iladi. Bu savolning javobi bunday:

Koinotdagi mavjudotga ularning tashqi harakati — harakatsizligi nuqtayi nazaridan qarasa, tosh, tuproq, oltin, olmos kabi jismlarda na o‘sinh, na his va na aql bor. Chunki mazkur jismlarni ekib o‘stirib bo‘lmaydi. Ulardagi katta bo‘lish jarayoni



o‘sinh hisobiga emas, qo‘shilish hisobiga bo‘ladi. O‘sinh o‘suvcchi jismining, ya‘ni o‘simlikning o‘zga moddalarni o‘zlashtirib, o‘z moddasiga aylantirishidan iborat. Masalan, olmani olsak. Olma daraxti ham, uning guli ham, mevasi ham tuproqda mavjud bo‘lgan, lekin na daraxt, na gul va na olma mevasi shaklida bo‘lmagan moddalarni quyosh nuri ta‘sirida o‘zlashtirib, qayta ishlab natijasida paydo bo‘ladigan jismdir.

Agar o‘simlikni olsak, unda o‘sinh bor, lekin sezgi va ixtiyoriy harakat hamda aql yo‘q. Masalan, daraxtni kessangiz, u og‘riq

(“So‘z xususida so‘z” kitobidan)

sezmaydi va o‘zicha bir yerdan ikkinchi yerga bormaydi. Agar hayvonni olsak, unda sezgi va ixtiyoriy harakat bor, lekin aql yo‘q. Insonda esa ham sezgi va ixtiyoriy harakat, ham aql mavjud. Shunday qilib, insonda boshqa jonsiz, o‘suvcchi va jonli mavjudotga xos hamma xususiyatlar bor va, shu bilan birga, ularning hammasida yo‘q bo‘lgan aql va yana nutq ham bor.

Mana shunga binoan, har bir kishining ikki jihatli bor. Biri uning hayvon bilan musharak tomoni, ikkinchisi insoniy jihat. Kishi onadan yetuk inson bo‘lib tug‘ilmaydi, lekin yetuklik iste‘dodi hammada bo‘ladi.

Chaqaloqda aql ishga tushmagani uchun unda kishining insoniy jihat juda kuchsiz bo‘ladi, esi kirgandan keyin uning insoniy tomoni dastlab taqild yo‘li bilan, keyinchalik ibrat olib, ongli ravishda o‘rganish va o‘z aqlini ishlatish yo‘li bilan rivojlanadi.

Mana shuning uchun saodatga erishaman degan har bir bola o‘zining insoniy jihatini rivojlantirishga harakat qilishi kerak. Buning uchun nima qilish kerak?

Buning uchun kishi yomon xislatlarni yaxshilari bilan almashtirishi lozim. Birinchi navbatda, ichiqorlikni yo‘qotib, oqko‘ngil bo‘lishi, ya‘ni yovuz niyat va yomon fikrlarni esga ham keltirmaydigan bo‘lib, faqat ezgu niyat va yaxshi amal bilan o‘zini mashg‘ul qilishi zarur.

Ikkinchidan, ko‘rolmaslikni ko‘ngildan butunlay chiqarib, uning o‘miga xayrixohlikni mustahkam qilib o‘rnatishi



Beshinchidan, surbetlik, uyatsizlikni hayo bilan almashtirishi shart. O‘zidan kattalarni hurmat, kichiklarga shafqat qilishi kerak.

Oltinchidan, butun a‘zosini pok tutishi, jumladan, ko‘zi pok, qulog‘i pok, luqmasi pok, so‘zi pok bo‘lishi shart. Ko‘z pokligi qarash kerak bo‘lmagan narsalarga qaramaslik, quloq pokligi eshitish kerak bo‘lmagan gaplarni, jumladan, g‘iybatni eshitmaslik, luqma pokligi o‘zgalarning tegishi bo‘lgan, man qilingan va zararli bo‘lgan narsalari yeb-ichmaslik, so‘z pokligi beadab so‘zlarni tilga olmaslikdir.

Yettinchidan, dangasalik, tanballik va erinchoqlikni vujudidan qochirib, o‘zini mehnatsevarlikka o‘rgatishi va mehnatdan rohat oladigan darajaga yetishi lozim. “Erinchoqlik boshga balo keltirar”, degan maqolning mazmunini anglamagan, mehnatning jismoniy va ruhiy salomatlik hamda moddiy farovonlik uchun eng zarur narsa ekanini bilmagan yoshlar mehnatdan qochib, o‘zlariga o‘zlari jabr qiladilar.

Sakkizinchidan, besabrikl, to‘zimsizlikdan qutulib, o‘zni sabr qilishga va bardoshli bo‘lishga o‘rgatish shart. Xalqimiz sabr qilsang g‘o‘radan halvo bitar, sabrsizlar o‘z oyog‘idan yitar deydi.

To‘qqizinchidan, ortiqcha talablar o‘mini qanoat bilan to‘ldirish lozim. Qanoatli kishi aziz bo‘ladi degan bashoratl so‘z bor.

O‘ninchidan, iloji boricha ko‘proq hunar o‘rganib, ilm olish kerak. “Hunari yo‘q kishining mazasi yo‘q ishinings”, “Hunar

— hunardan unar”, “Olim bo‘lsang olam seniki”, degan maqollar bekorga vujudga kelgan emas. Kelajakda kim bo‘lishidan qat‘i nazar, hamma uchun zarur bo‘lgan insoniy xislatlarning asosiylari shulardan iborat. Bu xislatlarga ega kishi saodat egasi bo‘ladi.

Ulug‘ mutafakkirlarimiz va klassik shoirlarimiz, xususan, Navoiyning fikricha, har bir kishining saodati uning amaliga bog‘liq. Hayotini ezgu amallarga bag‘ishlasa, baxtiyor bo‘ladi, chunki o‘zini egzulikka bag‘ishlagan zotga yovuzlik yuzlanmaydi. Agar yovuz ishlar bilan mashg‘ul bo‘lsa, badbaxt bo‘ladi, chunki yovuzlik bor yerda egulik bo‘lmaydi. Insonni vujudga keltirgan borliq shuni taqozo qiladi.

Inson boshqa mavjudotdan aql, ko‘ngil va tilga egaligi bilan afzal. Yeyish, ichish, uyqu va boshqa nafsoniy talablari uning boshqa mavjudotlar bilan musharak tomoni. Demak, insonning insonligi uning ruhiy olamida namoyon bo‘ladi. Shundan ma‘lumki, borliq tomonidan inson uchun belgilangan vazifa uning ma‘naviy tomoni bilan bog‘liq ekan. Navoiyning fikricha, bu vazifa mutlaq borliqning sifatini aks ettirishdan iborat. Shaxsning muvaffaqiyati unga yuklatilgan mana shu insoniy vazifani bajarish-bajarmasligiga bog‘liq. Kishi



o‘zining ma‘naviy tomonini rivojlantirgan sari u mutlaq borliqqa yaqinlasha boradi, nafsoniy tomonini rivojlantirsa, boshqa maxluqotga yaqinlashadi, agar aqlini ham nafsga bo‘ysundirsa, uni yuqorida qoldirib, o‘zi undan ham tubanlashib ketadi. Haqiqiy insonning haq bilan nohaqning farqini ko‘ra bilishi ham, to‘g‘ri niyati ham, halol mehnati ham, mehnatining barakali samarasi ham unga lazzat bag‘ishlaydi. Mehnat jarayonida xayrli natija umidi bilan xursand bo‘ladi. Natijada uning uchun lazzatsiz narsa qolmaydi. Bu lazzat miqdori ham, davomati ham cheksizdir. Bunday kishi o‘z yo‘lida har xil to‘siqlarga uchrashi va noxushliklar yuz berishi mumkin; lekin bular muvaqqat hodisalar bo‘lib, uni to‘g‘ri yo‘ldan qaytarolmaydi. Uning o‘zi buni maqsad yo‘lidagi tabiiy qiyinchiliklar tarzida qabul qiladi va undan ortiqcha ta‘sir lanmaydi.

Shoir mazkur insoniy xislatlarga ega bo‘lishi bilan birga yana umuman san‘at ahliga xos bo‘lgan fazilatlariga ham ega bo‘lishi kerak. Bulardan biri sezgirlikdir. San‘atkor, hunarmand, olim, yozuvchi va shoir payqash qiyin bo‘lgan juda nozik narsa va voqealarni seza oladigan kishi bo‘lishi zarur. Bunday xislatlarning yana biri kuzatuvchanlikdir. Kuzatuvchanlik kishiga har bir narsa va har bir hodisaning sababini aniqlab, oqibatini oldindan ko‘ra olishga yordam beradi.

Yana biri vahm, fantazyaniyagga kuchli bo‘lishidir. Bu xislat yangi buyum yasash va yangi asar yaratishning bosh omilidir. Yana biri zavq bo‘lib, bu insonning go‘zallik, yetuklik va go‘zallikdan lazzatlanish olish qobiliyati va lazzatlanishidir. Endi mana shu zavqdan shoirga xos bo‘lgan xislat va she‘rning muvaffaqiyatini ta‘minlovchi omillarga o‘tamiz.

She‘r shoir zavqining maxsus qoidalarga bo‘ysungan nuqtayi ifodasidir. Shoir o‘z zavqini badiiy so‘z bilan ifodalash san‘atini egallagan zavq ahlidir. She‘rni nazmdan farq qilish kerak. Nazm vazn va qofiyali nutq bo‘lib, u she‘r xususiyatlaridan xoli bo‘lishi mumkin. Masalan, vazn va qofiyaga solingan ilmiy risolalar hamda barcha zavq natijasi bo‘lmagan bayonlar nazm, lekin she‘r emas. Shuning uchun zavq talabiga javob beradigan nasriy nutqni ham ba‘zi olimlar she‘r sirasiga kiritadilar. O‘z nuqtini nazm bilan ifodalay oladigan kishi nozim deyiladi. Nozimlik xususiyatigagina ega bo‘lgan kimsani shoir deb bo‘lmaydi. Nozim shoir darajasiga ko‘tarilishi uchun, birinchidan, zavq egasi bo‘lishi lozim, ikkinchidan, o‘z zavqini san‘atkorona ifodalay bilishi kerak. She‘r shoirming “dardi”ni o‘zgalarga bildirishga bo‘lgan tabiiy ehtiyoji natijasida vujudga keladi. Ammo ma‘no ahliga mansub sog‘lom zavqli shoirming bu dardi xalq dardidan iborat va inson manfaatiga qaratilgan bo‘ladi. Har qanday mehnat samarasi singari shoir ijodining natijasi — badiiy asar ham xalq uchun foydali bo‘lishi kerak. Badiiy asarning elga beradigan fayzi unga lazzat bilan birga kamolot bag‘ishlashdan iborat.

Inson kamolotga bilish va xayrli amal bilan erishgani uchun solim zavqli shoir tab‘idan yaratilgan asar ma‘rifiy, tarbiyaviy va badiiy qiymatga ega bo‘ladi. O‘z navbatida, solim shinavanda ham mana shu uch talabga javob

berolmaydigan asardan qoniqmaydi. Asosan, bilim tashnaligini asarning ma‘rifiy tomoni qondiradi, amalda esa ezgu yo‘lga solish vazifasini uning tarbiyaviy jihatiga bajaradi va zavq talabiga badiiyati javob beradi. Asos e‘tibori bilan vazifalarning taqsimoti shunday. Ammo asarning bu uch jihat o‘z vazifasini bajarishda bir-biriga ko‘maklashadi. Badiiyat asarning tarbiyaviy ta‘sirini ortishiga va ma‘rifat jihatining yaxshi o‘zlashishiga yordam beradi. Tarbiyaviylik ma‘rifatga bo‘lgan intilishni va badiiyatning ta‘sirini oshiradi. Ma‘rifiylik asarning tarbiyaviy va badiiy tomonlarini mustahkamlaydi. Asarning har bir vazifasini uning uchala jihat birgalikda bajaradi.

She‘rni tushunish va aytish uchun zarur bo‘lgan xislatlardan yana biri xushta‘blik va nozikta‘blikdir. Kishi tabiatdan dag‘al bo‘lsa, nozik narsalar uning ko‘nglini harakatga keltirolmaydi.

Yana biri tefzafhmlk va nuktabinlikdir. Shoir nukta, ya‘ni mazmundor va go‘zal gaplarni tez tushuna oladigan va o‘zi ham aytga oladigan bo‘lmog‘i lozim.

Bulardan tashqari, yana shoir bo‘lmoqchi bo‘lgan kimsa tilni yaxshi o‘rganishi, juda ko‘p so‘z bilishi, klassik va zamonaviy she‘riyatni juda ko‘p va yaxshi tushunib o‘qishi va iloji boricha ko‘p she‘r yodlashi kerak. Masalan, Navoiy o‘zga shoirlarga mansub yuz ming baytdan ortiq she‘rni yoddan bilgan.

Shu bilan birga, she‘r qoidalarini, qofiya, vazn va san‘atlarini yaxshi o‘rganishi shart.

“Chinor” so‘zi. Hozirgi “chinor” so‘zi aslida “charog” shaklidagi so‘z bo‘lib, qadim “chanor”, keyinchalik “charog” so‘zi “chirog” shaklini olganday, “chanor” ham “chinor” deb ataladigan bo‘lgan.

Mumtoz adabiyotda chinor shoxi qo‘lga o‘xshatiladi, bargi panjasimon bo‘lgani uchun. Masalan, Shams Tabriziy bir baytda:

Chanor fahm kunad andake
zi roz-i chaman

Hazor dast barorad xushu duo kunad,
ya‘ni chinor chaman sirini ozgina tushunadi, shuning uchun yaxshilab ming qo‘l chiqarib duo qiladi deydi. Bunda chinorning uzoq umr ko‘rishi ham nazarda tutiladi. Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida chinorning mevasizligini, lekin uning ulug‘ligini nazarga olib, qo‘lida moli yo‘q, lekin oliyhimmat mehnatkash kambag‘alni chinorga, xasis boylarni esa tuproqqa o‘xshatib bunday deydi:

“Sohibhimmatt muflisligi bila past bo‘lmas, himmatsiz ganj topsa, biyiklarga hamdast bo‘lmas. Chanor ilgi xoliylig‘idin biyikligiga ne nuqson yetmaydi, tufroqning o‘zi yashirib yotgan xazinalari bo‘lsa ham u ulug‘liqqa erisholmaydi.

Ya‘ni sohibhimmatt, himmatli kishi muflisliq, ya‘ni kambag‘allik bilan pastkash bo‘lib qolmaydi, himmati yo‘q kishi ganj, ya‘ni xazina topsa ham buyuk shaxslarga teng bo‘lmaydi. Chinorning qo‘li xoliy bo‘lgani bilan uning ulug‘lig‘iga nuqson yetmaydi, tufroqning o‘zi yashirib yotgan xazinalari bo‘lsa ham u ulug‘liqqa erisholmaydi.

Alibek RUSTAMOV,
filologiya fanlari doktori,
akademik